ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MATYOQUB QO'SHJONOV TALQINIDA QODIRIY FENOMENI
(«O'zbekning o'zligi» asari misolida)

Yuldoshev Dilmurod,
Qarshi davlat universiteti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

XX asr o'zbek – adabiyotining eng muhim hodisalaridan biri – Abdulla Qodiriyning ijodiy merosidir. Uning «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon» kabi romanlari nafaqat o'zbek romanchiligiga asos soldi, balki milliy ong va adabiy tafakkur taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Shu bois Qodiriy fenomeni adabiyotshunoslikda alohida o'rganilgan masalalardan biri bo'lib, bu fenomenning o'ziga xosligi shundaki, u milliy badiiy tafakkur taraqqiyotining bir necha bosqichlarini o'zida mujassamlashtiradi, ya'ni u milliy roman janrini yaratish, xalq ruhiyatini obrazlarda jonlantirish, milliy o'zlikni tarixiy voqealar bilan uyg'un holda ifodalash vazifalarini bajarib bergan. Adabiyotshunos olim Matyoqub Qo'shjonov bu jarayonda Qodiriy ijodining tutgan o'rnini alohida baholaydi va uni millatning o'zligini anglash yo'lidagi muhim qadam sifatida ko'rsatadi. M.Qo'shjonovning fikricha, Qodiriyning san'atkorligi avvalo xarakter yaratish mahoratida namoyon bo'ladi, u voqealarni bir-biriga mustahkam bog'lab, ruhiy kechinmalarni chuqur ochadi, natijada kitobxonni doimiy hayajon va qiziqish holatida ushlab tura oladi. Olim yozadi: «Ko'ryapsizki, bu yerda Abdulla Qodiriyning ijodiga xos muhim bir xususiyat – uning xarakterlar yaratish mahorati haqida ketayotir. Xarakterlar yaratishda esa uning eng yaxshi ko'rgan metodlaridan biri, voqealarni bir-birlariga zanjirband qilib, puxta bog'lab berishdan iborat edi. Shu yo'l bilan u xarakterlar psixologiyasi bayonini quyuqlashtirar, kitobxonni doim bir xil qiziqishda tuta olar edi»[1]. Ushbu kuzatuv bevosita Qodiriy fenomenining nazariy mohiyatini ochib beradi. Chunki Qodiriy o'z asarlarida hayotiylikni oddiy voqealar tasviriga keltirib qo'ymaydi, balki ularni shunday kompozitsion ipga tizadiki, obrazlar o'z tabiatidan kelib chiqib harakat qiladi, xarakter rivoji voqelik oqimi bilan uyg'unlashadi, shu bilan asar hayotiy ishonchlilikka erishadi.

Adabiyotshunoslikda fenomen tushunchasi shaxs yoki hodisaning umumiy taraqqiyotdagi beqiyos o'rnini anglatadi. Qodiriy fenomeni ham shundan iboratki, u o'zbek adabiyoti uchun yangi janr, yangi badiiy tafakkur ufqlarini ochdi. O'z davrida ijtimoiy-siyosiy sharoit qanchalik murakkab bo'lmasin, yozuvchi millatning ruhiy qiyofasini, o'zligini adabiyotda aks ettira oldi. M.Qo'shjonov qayd etganidek, Qodiriy uchun tarixiy voqealar dekorativ vosita emas, balki xalqning taqdirini ochuvchi estetik kalitdir. Shu sababdan ham «O'tkan kunlar»da oila, muhabbat, shaxsiy hayot masalalari bilan bir qatorda xalqning adolat va ozodlikka intilishi ham markaziy o'rin egallaydi. Qodiriy fenomenini ilmiy o'rganishning yana bir muhim jihati uning keyingi avlod yozuvchilariga ta'siridir. M.Qo'shjonov bu ta'sirni keng ko'lamda izohlaydi: u nafaqat o'zbek romanchiligida, balki turkiy xalqlar adabiyotida ham seziladi. Masalan, turkman yozuvchisi Hidoyat Deryaevning «Qismat» asari Qodiriyning «O'tkan kunlar»idan badiiy tahlil usullarini o'zlashtirganini eslatadi. Bu faktning o'ziyoq Qodiriy fenomenining milliy chegaralardan chiqib, umummadaniy ahamiyat kasb etganini ko'rsatadi. Demak, Qodiriy fenomeni faqat adabiy janr yaratuvchi sifatida emas, balki milliy o'zlikni anglatadigan, xalq ruhiyatini tarixiy jarayonlarda ifodalash imkonini beradigan hodisa sifatida ham talqin qilinishi lozim. M.Qo'shjonovning ilmiy mulohazalari ana shu talqinni asoslaydi. «M.Qo'shjonovning «O'zbekning o'zligi» kitobi ana shu xususiyati bilan qimmatlidir. Unda Qodiriy romanlari ezgu qadriyatlar, o'zbekona urf-odatlar va milliy ruhiyat nuqtayi nazaridan talqin etiladi. Munaqqidning yutug'i shundaki, u asar qahramonlari Otabek va Kumush qalbida kechgan tug'yonlarni, ruhiy holatlarni roman sujeti va kompozitsiyasidan ajratmay, yaxlit holda tahlil qilishga erisha olgan.»[2]. Bugungi adabiyotshunoslikda ham Qodiriy fenomenini o'rganish dolzarbligini yo'qotgani yo'q, chunki millatning ma'naviy o'zligi, tarixiy xotirasi va badiiy

[1] Матёқуб Қўшжонов. Танланган асарлар. Адабий-танқидий рисолалар, эсселар, хотиралар. – Тошкент: Шарқ. 2018. – Б. 148-149.

[2] Назаров Б. ва бошқ. Ўзбек адабий танқиди тарихи. Дарслик. – Тошкент: Тафаккур қаноти, 2012. – 219 б.

tafakkuri bilan bog‘liq barcha masalalar Qodiriy merosi bilan chambarchas tutashib ketgan.

Abdulla Qodiriy fenomeni o‘zbek adabiyotida nafaqat yangi badiiy shaklni, balki yangi tafakkur ufqlarini ochib bergan hodisa sifatida qaraladi. Uning ijodi, xususan, «O‘tkan kunlar» romani orqali milliy adabiyotda roman janriga asos solindi, bu esa o‘zbek adabiyotining taraqqiyotida tamoman yangi bosqichni boshlab berdi. Qodiriy fenomenining mohiyati shundaki, u o‘z davri ijtimoiy-ma’naviy muhitini xalqning ruhiy olami, orzu-umidlari, ma’naviy qiyofasi bilan bir butun holda tasvirladi va shu orqali milliy adabiyotning ham estetik, ham nazariy poydevorini mustahkamladi. Roman janri o‘zbek adabiyotiga kirib kelishi bilan asarlar nafaqat voqeaband tasvirga, balki xarakterlar rivojiga, tarixiy xotira va ijtimoiy ongning ifodasiga asoslanadigan bo‘ldi. Qodiriy fenomeni ana shu yangilikning nomi sifatida qaraladi. Matyoqub Qo‘shjonov bu jarayonni atroflicha tahlil etar ekan, Qodiriy ijodini milliy romanchilik maktabining poydevoriga tenglashtiradi. Olimning ta’kidlashicha, yozuvchi xalqning tarixiy taqdirini, ruhiyatini, ijtimoiy muammolarini badiiy shaklda yoritish orqali milliy adabiyot uchun yangi yo‘l ochdi.

Qodiriy fenomeni mohiyatini belgilaydigan yana bir muhim jihat shundaki, u milliy ongning uyg‘onishida tarixiy voqealarni asosiy vosita sifatida ishlatdi. Tarixiylik uning asarlarida fon emas, balki xalq taqdirining badiiy kalitidir. Shu jihatdan «O‘tkan kunlar» romani birinchi milliy tarixiy roman sifatida nafaqat janr yangiligini, balki tarixiy-estetik tafakkurning yangi bosqichini ham ifodalaydi. Bu bilan Qodiriy fenomeni o‘zbek adabiyotini Sharq an’analari va G‘arb adabiyoti tajribalari bilan uyg‘unlashtirdi. Yozuvchi badiiy tafakkurni xalqona ruh, milliy til va mentalitetga tayangan holda yangiladi, natijada romanchilik janri milliy adabiyotning yetakchi shakliga aylandi. Shuningdek, Qodiriy fenomeni nafaqat janriy yangilikda, balki badiiy tafakkur mazmunida ham ko‘rindi. Uning asarlarida shaxsiy hayot, muhabbat, oilaviy ziddiyatlar tarixiy voqealar bilan chambarchas bog‘langan holda tasvirlandi. Bu esa xalq ruhiyatini, milliy o‘zlikni, adolatga intilish va ozodlik istagini badiiy obrazlar orqali yuksak darajada ifodalash imkonini berdi. Aynan shu jihatlar Qodiriyni fenomen darajasiga olib chiqdi. Chunki u o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib xalq ruhini badiiy adabiyotning asosiy mavzusi sifatida ko‘tarib chiqdi, o‘z davri uchun juda yangicha bo‘lgan badiiy-estetik mezonlarni amaliyotga tadbiq etdi. Shunday qilib, Qodiriy fenomenining mohiyati avvalo uning milliy roman janriga asos solganida va shu orqali o‘zbek adabiyotida yangi bosqichni boshlab berganida namoyon bo‘ladi. U xalq hayotini obrazlarda ifodalash, tarixiy voqealarni milliy ruh bilan uyg‘unlashtirish, xarakterlarni chuqur psixologik asosda yaratish orqali nafaqat badiiy yangilik, balki milliy o‘zlikni anglashning nazariy poydevorini ham yaratdi. Shu sababdan Qodiriy fenomeni faqat adabiy hodisa emas, balki milliy tafakkur tarixidagi burilish nuqtasi sifatida talqin qilinadi.

Matyoqub Qo‘shjonovning ilmiy qarashlarida Abdulla Qodiriy fenomenini belgilaydigan asosiy jihatlardan biri bu uning betakror badiiy mahoratidir. Qodiriy ijodini tahlil qilar ekan, Qo‘shjonov yozuvchining eng katta san’atkorligi obraz yaratish jarayonida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Bu jihat oddiy portret tasviri yoki voqealar ketma-ketligini bayon qilish bilan cheklanmaydi, balki xarakterlarning ichki dunyosi, ularning psixologik kechinmalari, ruhiy ziddiyatlari va ijtimoiy sharoit bilan uzviy bog‘liqligini ochib berish orqali amalga oshadi. Qodiriy qahramonlari hayotiy, ular kitobxon ko‘z o‘ngida o‘sadi, rivojlanadi va o‘z taqdirlari orqali butun bir millatning ruhiy qiyofasini ifodalaydi. M.Qo‘shjonov Qodiriyning badiiy mahoratini bir necha asosiy jihatlar orqali ko‘rsatadi. Birinchidan, u xarakterlarni bir-biriga zanjirband voqealar ichida rivojlantira olgan. Bunda voqealar oddiy ketma-ketlikda emas, balki ichki mantiqqa asoslangan holda, dramatik keskinlik bilan bog‘lanadi. Ikkinchidan, yozuvchi psixologik tahlilni chuqurlashtiradi: qahramonlarning tashqi harakati ularning ichki kechinmalarini ochib berishga xizmat qiladi. Uchinchi jihat shundaki, Qodiriy xalqona nutq ohanglarini, ibora va maqollarni mohirlik bilan qo‘llaydi, bu esa obrazlarni yanada tabiiy, hayotiy va kitobxonga yaqin qiladi.

Qodiriyning badiiy mahorati nafaqat qahramonlar ichki dunyosini tasvirlashda, balki tarixiy voqealarni dramatik ruhda jonlantirishda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Qo‘shjonovning qayd etishicha, yozuvchi tarixni fon sifatida ishlatmaydi, aksincha, uni badiiy konfliktlarni kuchaytiruvchi vosita sifatida qo‘llaydi. Masalan, «O‘tkan kunlar»dagi oila va muhabbat bilan bog‘liq voqealar, xususan Otabek va Kumush munosabati, ayni paytda millatning ijtimoiy-ruhiy kurashlari bilan hamohang tasvirlanadi. Bunda yozuvchi kichik detallar orqali katta tarixiy umumlashmalar beradi. Bu esa yozuvchining badiiy mahoratining eng muhim belgisidir: xususiy taqdirlar orqali umumxalq qismatini yoritish. M.Qo‘shjonovning talqinida yana bir muhim jihat shundaki, Qodiriy badiiy tasvirida hayotiylik bilan idealizm uyg‘unlashadi. Yozuvchi o‘z qahramonlarini ideal darajaga ko‘tarmaydi, ularni hayotiy ziddiyatlar bilan birga ko‘rsatadi, shu orqali ularning kuchli va zaif tomonlarini ham tasvirlaydi. Bu usul realizm tamoyillariga asoslanadi va o‘zbek adabiyotida yangi badiiy tafakkur bosqichini boshlab beradi. Shu bois Qodiriy fenomeni haqida gap ketganda, uning badiiy mahoratini chuqur anglamasdan bu hodisani to‘liq tushunish mumkin emas. Demak,

Matyoqub Qo‘shjonov nazariy mulohazalarida Qodiriy fenomenining eng asosiy o‘lchovi yozuvchining badiiy mahoratidadir. Bu mahorat xarakterlarning ichki dunyosini psixologik chuqurlikda ochib berish, voqealarni mantiqan bog‘lash, tarixiylikni xalq ruhiyati bilan uyg‘unlashtirish va milliy til imkoniyatlarini mahorat bilan qo‘llashda namoyon bo‘ladi. Shu tarzda Qodiriy fenomeni adabiyotshunoslikda faqat janriy yangilik sifatida emas, balki badiiy tafakkurning yangi sifat bosqichi sifatida qaraladi.

Abdulla Qodiriy fenomenini chuqur anglash uchun uning tarixiylik va milliylikni uyg‘unlashtirishdagi badiiy usullarini tahlil qilish zarur. Matyoqub Qo‘shjonov talqinida yozuvchining eng muhim san’atkorlik yutug‘i ham aynan shu uyg‘unlikni ta’minlashidadir. Qodiriy asarlarida tarixiy voqealar dekorativ fon sifatida emas, balki xalq ruhiyatini, milliy o‘zlikni, jamiyatning ichki ziddiyatlarini ochib beruvchi badiiy mexanizm sifatida xizmat qiladi. «O‘tkan kunlar» romanida tasvirlangan XIX asr o‘zbek jamiyatidagi siyosiy vaziyat, feodal munosabatlar, adolat va zulm to‘qnashuvlari ayni paytda xalqning orzu-intilishlari va milliy o‘zlikni anglash jarayoni bilan chambarchas bog‘langan holda berilgan. Shaxsiy taqdirlar, muhabbat va oilaviy voqealar esa shu tarixiy fon ustida millat taqdirining badiiy in’ikosi sifatida namoyon bo‘ladi. M.Qo‘shjonov Qodiriy romanlaridagi tarixiylikni ikki bosqichda izohlaydi: birinchisi, aniq tarixiy voqealar va shaxslarning asarda aks etishi, ikkinchisi esa bu voqealar orqali xalqning ruhiy holati va milliy ongini ochib berish. Olimning fikricha, Qodiriy uchun tarixiy voqealarni sanab o‘tish emas, balki ularni badiiy umumlashtirish, milliy o‘zlikni ifodalash vositasi sifatida qo‘llash muhim edi. Shu boisdan ham uning romanlari faqat tarixiy hujjat sifatida emas, balki milliy ma’naviyatni yorituvchi asarlar sifatida qadrlanadi. M.Qo‘shjonov bu haqda shunday yozadi: «Romanning uchinchi qismi mazmun e’tibori bilan oldingi qismlarga nisbatan ancha to‘liqdir. Bu tabiiy. Odatda haqiqiy asarlarda bob va qismlar alohida masalalarni hal qilib, yuqoriga intiladi, oxirgi boblarda kitobda qamrab olingan barcha masalalar umum yechimga olib boriladi»[1] Bu mulohaza Qodiriy fenomenining mohiyatini ko‘rsatadi: tarixiylik va milliylik o‘zaro uzviy bog‘langan holda estetik yaxlitlik hosil qiladi. «O‘tkan kunlar»dagi Otabek va Kumushning muhabbati oddiy romantik voqea emas, balki millatning ozodlik, adolat va orzu-intilishlarini badiiy timsol darajasiga ko‘tarilgan voqelikdir. Bu muhabbat atrofida jamiyatdagi feodal tuzum, ijtimoiy tengsizlik, xalqning dardu hasratlari yoritiladi. Shu jihatdan Qodiriyning qahramonlari milliy ongning turli qatlamlarini ifodalaydi: Otabek zamonaviy fikrlovchi ziyoli timsolida, Kumush millatning sof va pok ruhini ifodalovchi obraz sifatida, Yusufbek hoji esa xalqning ma’naviy ustuni sifatida talqin qilinadi. Bu obrazlarning barchasi tarixiylikdan kelib chiqsa-da, ularning mohiyatida milliylik ustuvor o‘rin tutadi. M.Qo‘shjonov nazarida Qodiriyning tarixiylikka yondashuvi Sharq adabiyotidagi an’anaviy tarixiy hikoyachilikdan tubdan farq qiladi. Agar an’anaviy tarixiy asarlarda ko‘proq shaxslar va voqealar xronikasi tasvirlansa, Qodiriy tarixiy voqealarni xalqning ichki dunyosi bilan bog‘lab beradi. Shu sababdan ham Qodiriyning romanlari kitobxon uchun faqat o‘tmishni eslatuvchi asar emas, balki millatning o‘zligini anglashga yordam beruvchi estetik vosita sifatida qabul qilinadi. Bu jihat yozuvchini fenomen darajasiga olib chiqqan asosiy omillardan biridir. Demak, Qodiriy fenomenining o‘zagi – tarixiylik va milliylikni uyg‘unlashtira olishdir. Bu uyg‘unlikda tarixiy voqealar badiiy voqelikning mazmunini belgilasa, milliylik uning ruhini, estetik mohiyatini tashkil etadi. Qo‘shjonovning tahlillari ham aynan shu xulosani tasdiqlaydi: Qodiriy tarix orqali millat ruhini ko‘rsatdi, milliy ruh orqali esa tarixni badiiylashtirdi. Natijada u o‘zbek adabiyotida tarixiy roman janriga asos soldi va milliy o‘zlikni anglash jarayonida adabiyotning o‘rni naqadar beqiyos ekanini amalda isbotladi.

Abdulla Qodiriy fenomenini belgilaydigan eng muhim jihatlardan biri uning obrazlar yaratishdagi badiiy yondashuvidir. Matyoqub Qo‘shjonov talqinida yozuvchining san’atkorligi aynan obrazlar tizimida eng yorqin ko‘rinadi. Chunki Qodiriy romanlarida xarakterlar oddiy voqealarni jonlantirib turuvchi qahramonlar emas, balki milliy o‘zlikni ifodalovchi timsollar sifatida maydonga chiqadi. Otabek, Kumush, Yusufbek hoji, Musulmonqul, Zaynab kabi qahramonlar o‘z shaxsiy taqdirlari bilan birga butun xalqning ruhiy qiyofasini, milliy ongini va ijtimoiy muhitini ochib beradi. Shu bois ham Qodiriyning xarakter yaratishdagi mahorati adabiyotshunoslikda fenomenal hodisa sifatida talqin qilinadi. M.Qo‘shjonov Qodiriy obrazlarini uch asosiy guruhda ko‘rsatadi. Birinchi guruh – millatning ilg‘or, taraqqiyparvar g‘oyalarini ifodalovchi obrazlar. Otabek ana shunday qahramon bo‘lib, u yangicha fikrlovchi, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni orzu qiluvchi, xalq taqdiriga befarq bo‘lmagan ziyoli sifatida gavdalanadi. Otabek obrazi orqali yozuvchi millatning o‘z davriga xos ijtimoiy ongini va kelajakka bo‘lgan ishonchini ifodalaydi. Ikkinchi guruh – millatning sof, pokiza, ma’naviy ustunini aks ettiruvchi obrazlar. Bu qatorda Kumush timsoli alohida ahamiyat kasb etadi. Kumush o‘zining sadoqati, sof muhabbati va ma’naviy go‘zalligi bilan millatning o‘zagi-

[1] Матёқуб Қўшжонов. Танланган асарлар. Адабий-танқидий рисолалар, эсселар, хотиралар. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б.123.

ni ifodalaydi. U nafaqat sevuvchi ayol, balki millatning eng nozik, eng sof ruhiy qiyofasining badiiy timsolidir. Uchinchi guruh – jamiyatdagi inqirozni, illatlarni, feodal tuzumning chirkin tomonlarini ifodalovchi obrazlar. Musulmonqul, Azizbek kabi qahramonlar ana shunday salbiy kuchlarning vakillari sifatida romanda o‘rin oladi. M.Qo‘shjonov bu obrazlarning nazariy ahamiyatini ta’kidlar ekan, Qodiriyning xarakter yaratish metodini alohida e’tirof etadi.

Otabek obrazi orqali yozuvchi zamonaviy fikrlashga intiluvchi milliy ziyolining ilk qiyofasini yaratdi. Kumush obrazi esa milliy adabiyotimizda ayol timsolining butunlay yangi bosqichini boshlab berdi: u passiv emas, balki o‘z taqdirini ongli ravishda tanlay oladigan, ruhiy qudrati bilan sevgi va sadoqatni yuksak qadriyat darajasiga ko‘targan obrazdir. Yusufbek hoji esa xalqning tarixiy tajribasini, diniy va ma’naviy qadriyatlarni ifodalaydi. Shu tarzda, Qodiriy obrazlari millatning turli qatlamlarini qamrab olgan keng qamrovli badiiy sistema sifatida gavdalanadi. Shu bilan birga, salbiy obrazlar ham o‘ziga xos nazariy ahamiyat kasb etadi. Musulmonqul yoki Azizbek kabi qahramonlar jamiyatdagi chirkin illatlarni, adolatsizlikni, zulmni ifodalash orqali ijobiy qahramonlarning ma’naviy yuksakligini yanada yorqinroq ko‘rsatadi. Bu qarama-qarshilik orqali yozuvchi milliy o‘zlikni nafaqat ijobiy fazilatlarda, balki kurash, to‘qnashuv, qarama-qarshilik jarayonida ham yoritadi. Umumiy qilib aytganda, M.Qo‘shjonov nazariyasida Qodiriy fenomenining markazida aynan o`sha obrazlar turadi. Chunki Qodiriy yaratgan obrazlar xalqning ruhiyatini, milliy o‘zlikni va tarixiy jarayonlarni badiiy shaklda mujassamlashtiradi. Bu obrazlar nazariy jihatdan milliy adabiyotning o‘ziga xosligini belgilab bergan, o‘zbek romanchiligini yangi bosqichga ko‘targan. Shu bois Qodiriy obrazlari oddiy qahramonlar emas, balki milliy ongning estetik timsollari sifatida fenomenal hodisa darajasiga ko‘tarilgan.

Matyoqub Qo‘shjonov talqinida Qodiriy fenomenining o‘zbek adabiy jarayonidagi ahamiyati beqiyosdir. Chunki Abdulla Qodiriy o‘z asarlari orqali milliy romanchilik maktabiga asos soldi, bu maktab esa keyingi avlod yozuvchilarning ijodiy faoliyatida bosh mezon bo‘lib xizmat qildi. M.Qo‘shjonovning fikricha, Qodiriyning ijodi nafaqat bir yozuvchining shaxsiy mahoratini ko‘rsatadi, balki butun o‘zbek adabiy tafakkurida yangi davrni boshlab berdi. Chunki undan oldin bunday keng ko‘lamli, xalq ruhiyatini, milliy taqdirni yorituvchi roman darajasidagi asar o‘zbek adabiyotida mavjud emas edi. Shu jihatdan Qodiriy fenomeni faqat bir yozuvchining ijodiy uslubi emas, balki o‘zbek adabiyotida janr, shakl va mazmun yangilanishini ta’minlagan hodisadir. M.Qo‘shjonovning nazariy mulohazalarida Qodiriy fenomenining adabiy jarayondagi ahamiyati, avvalo, roman janrining milliy adabiyotimizdagi yetakchi o‘rin egallashida ko‘rinadi. Qodiriy badiiy adabiyotga romanning keng imkoniyatlarini olib kirib, obrazlarni ruhiy chuqurlikda tasvirladi, tarixiy voqealarni xalqning milliy o‘zligi bilan uyg‘unlashtirdi. Bu jarayon natijasida o‘zbek romanchiligi keyingi avlod yozuvchilari – Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O‘tkir Hoshimov singari ijodkorlarning asarlarida ham o‘z izini qoldirdi. Ularning romanlarida epik kenglik, xalq taqdiri, tarixiy xotira va ijtimoiy muammolarni ko‘tarish Qodiriy asos solgan an’anadan kelib chiqadi. M.Qo‘shjonov bu masalaga alohida urg‘u berib shunday yozadi: «Bu romanlarda Abdulla Qodiriy ko‘zi bilan ko‘rgan ijtimoiy-siyosiy burilishlar tafsilotlarini aks ettiryapti»[1]. Qodiriy fenomeni milliy o‘zlikni anglash jarayonini adabiyotning asosiy mavzusiga aylantirdi. Avvalroq adabiy asarlar ko‘proq didaktik maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lsa, Qodiriy romanlarida xalqning o‘zligini anglash, tarixiy xotirasini qayta tiklash, milliy qadriyatlarni badiiy obrazlar orqali jonlantirish bosh maqsadga aylandi. Bu esa adabiyotga yangi estetik mezonlar olib kirdi. Shuningdek, Qodiriyning xalqona uslubi, milliy til boyliklaridan unumli foydalanishi, kitobxon qalbiga yaqin obrazlarni yaratishi adabiy jarayonni xalqparvarlik ruhida boyitdi.

M.Qo‘shjonov tahlillarida Qodiriy fenomeni o‘zbek adabiyotida bir turning ikkinchisiga o‘tish nuqtasi sifatida ko‘riladi. Chunki u Sharq mumtoz adabiy an’analari bilan G‘arb romanchilik tajribalarini uyg‘unlashtirdi. Bu uyg‘unlik keyingi avlod yozuvchilari ijodida davom etdi va o‘zbek adabiyoti global adabiy jarayonlar bilan hamohang rivojlanishiga zamin yaratdi. Shu bilan birga, Qodiriy fenomeni milliy adabiyotning o‘ziga xosligini ham ta’minlab berdi, ya’ni u xalq ruhiyatini, milliy mentalitetni, o‘zbek hayotining o‘ziga xos tafsilotlarini roman janrida yoritish orqali adabiyotimizni mustaqil estetik yo‘nalishga olib chiqdi. M.Qo‘shjonov nazarida Qodiriy fenomenining adabiy jarayondagi ahamiyati uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: birinchidan, o‘zbek romanchilik maktabining yaratilishi va shakllanishida; ikkinchidan, milliy o‘zlikni anglash jarayonining badiiy-estetik ifodasida; uchinchidan, keyingi avlod adabiyoti uchun an’anaviy maktab yaratib berganidadir.

Abdulla Qodiriy fenomenini milliy o‘zlikni anglash jarayonidan ajratib tasavvur qilib bo‘lmaydi. Matyoqub Qo‘shjonovning ta’kidlashicha, yozuvchi o‘z asarlari orqali millatning o‘zini anglashiga, tarixiy xotirani tiklashga va ma’naviy qadriyatlarni es-

[1] Матёқуб Қўшжонов. Танланган асарлар. Адабий-танқидий рисолалар, эсселар, хотиралар. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 137.

tetik vositalar orqali yuksaltirishga beqiyos hissa qo‘shgan. Qodiriy uchun roman yozish faqat badiiy jarayon emas, balki xalq ruhini uyg‘otish, milliy ongni shakllantirish, jamiyatning o‘zini o‘ziga tanitish vositasi edi. Shu bois ham Qodiriy fenomeni milliy o‘zlikni anglash jarayonining muhim estetik bosqichi sifatida talqin etiladi. «O‘tkan kunlar» romanida Otabekning yangi g‘oyalarga intilishi, Kumushning pokiza muhabbati va Yusufbek hojining ma’naviy sabr-toqati orqali yozuvchi o‘zbek xalqining eng chuqur ruhiy qatlamlarini ochib berdi. Bu qahramonlar birgina shaxsiy taqdirlarni emas, balki millatning orzu-intilishlarini ifodaladi. M.Qo‘shjonov Qodiriyning milliy o‘zlikni anglashdagi rolini izohlar ekan, uning asarlarida tarixiylik va milliylik uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratadi. Chunki tarixiy voqealar milliy xotira bilan, milliy xotira esa xalqning o‘zini anglash ehtiyoji bilan chambarchas bog‘liqdir. Qodiriy asarlarida bu jarayon aniq ko‘rinadi: o‘tmishdagi zulm, feodal tarqoqlik, ijtimoiy tengsizlik fonida xalqning adolat, erkinlik va mustaqillikka intilishi badiiy ifodasini topadi. Shu jihatdan Qodiriyning romanlari milliy tarixiy xotiraning estetik shakllanish jarayonida muhim bosqich bo‘ldi. Qo‘shjonovning so‘zlari bilan aytganda: «Abdulla Qodiriyga bu haqiqat emas, balki u qabul qilgan, u tushungan va tasvirlagan haqiqat kerak edi»[1] . Bu fikr shuni anglatadiki, yozuvchi tarixiy voqealarni fakt sifatida emas, balki xalq ongida, milliy ruhda qayta shakllangan holda ifodalashni maqsad qilgan.

Qodiriy fenomeni milliy o‘zlikni anglash jarayonida uch asosiy vazifani bajaradi. Birinchisi, tarixiy xotirani jonlantirish va xalqni o‘z o‘tmishi bilan yuzlashtirish. Ikkinchisi, millatning ma’naviy qiyofasini obrazlarda mujassamlashtirish. Uchinchisi, adolat va ozodlik g‘oyalarini xalqning umumiy orzu-intilishi sifatida ifodalash. Bu uch vazifa ham «O‘tkan kunlar» romanida, ham Qodiriyning boshqa asarlarida o‘zining yorqin ifodasini topgan. Shu bois M.Qo‘shjonov talqinida yozuvchi fenomen darajasiga ko‘tarilgan, chunki u badiiy vositalar orqali millat ongining o‘zini o‘zi anglash jarayonini tezlashtirgan. Qodiriy fenomenining milliy o‘zlikni anglashdagi yana bir muhim jihati shundaki, yozuvchi xalqni faqat tarixiy voqealar orqali emas, balki uning ruhiy qudrati, ma’naviy qadriyatlari, oila va muhabbat singari qadimiy an’analari orqali ham tasvirladi. Bu tasvirlar milliy ongning ichki qatlamlarini yoritishga xizmat qildi. Otabekning Vatan va xalq taqdiriga befarq bo‘lmasligi, Kumushning sadoqati va sof muhabbati, Yusufbek hojining sabr-toqati – bularning barchasi milliy o‘zlikni ifodalovchi timsollar sifatida romanda yashab keladi. Shuning uchun ham Qodiriyning romanlari milliy ongni shakllantirishda o‘ziga xos «badiiy darslik» bo‘lib xizmat qiladi. M.Qo‘shjonov nazarida Qodiriy fenomenining eng muhim ahamiyati milliy o‘zlikni anglash jarayonida namoyon bo‘ladi. Chunki yozuvchi xalqning ruhini uyg‘otdi, milliy xotirani badiiy shaklda tikladi va millatni adabiyot orqali o‘zligini anglashga undadi. Shu sababdan Qodiriy fenomeni faqat badiiy yangilik emas, balki milliy ong va o‘zlik tarixida muhim estetik bosqich sifatida qadrlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy fenomeni o‘zbek adabiyotida milliy romanchilik maktabiga asos solish, xalq ruhiyatini badiiy obrazlarda jonlantirish va milliy o‘zlikni anglash jarayonini tezlashtirishda beqiyos ahamiyat kasb etdi. Matyoqub Qo‘shjonovning «O‘zbekning o‘zligi» asaridagi nazariy mulohazalar shuni ko‘rsatadiki, yozuvchining san’atkorligi eng avvalo xarakter yaratish mahoratida, voqealarni zanjirband bog‘lashda, tarixiy voqealarni milliy ruh bilan uyg‘unlashtirishda namoyon bo‘lgan. Qodiriy romanlari oddiy tarixiy voqea-hodisalarni emas, balki xalqning orzu-intilishlari, ijtimoiy muammolari va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Shu jihatdan yozuvchi nafaqat badiiy yangilik yaratdi, balki millatning o‘zligini adabiyot orqali ifodalashning nazariy asoslarini ham shakllantirdi. M.Qo‘shjonovning tahlillari shuni tasdiqlaydiki, Qodiriy fenomeni o‘zbek adabiyotining ichki qonuniyatlarini ochib beruvchi, uni Sharq adabiy an’analari va G‘arb romanchilik tajribalari bilan uyg‘unlashtiruvchi, keyingi avlod ijodkorlari uchun mustahkam poydevor yaratib bergan hodisadir. Yozuvchining obrazlari millatning ruhiy qiyofasi sifatida talqin qilinishi, tarixiy voqealarning xalqning adolat va ozodlikka intilishi bilan bog‘liq tarzda tasvirlanishi bugungi adabiyotshunoslik uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Qodiriy fenomenining boshqa turkiy xalqlar adabiyotiga, xususan turkman yozuvchilari ijodiga ko‘rsatgan ta’siri esa uning qiyosiy adabiyotdagi o‘rnini ham belgilaydi.

Xullas, Matyoqub Qo‘shjonov talqinida Qodiriy fenomeni milliy adabiyot tarixida burilish yasagan, milliy ongni yuksaltirgan va adabiy tafakkurni yangi bosqichga olib chiqqan hodisa sifatida qaraladi. Bu fenomenni o‘rganish bugungi kunda ham muhim, chunki millatning ma’naviy o‘zligi, tarixiy xotirasi va badiiy tafakkur taraqqiyoti masalalari Qodiriy merosi bilan uzviy bog‘liqdir.

[1] Матёқуб Қўшжонов. Танланган асарлар. Адабий-танқидий рисолалар, эсселар, хотиралар. – Тошкент: Шарқ. 2018. – Б. 65.

Rezyume. Mazkur maqolada Matyoqub Qo‘shjonovning «O‘zbekning o‘zligi» asaridagi nazariy qarashlari asosida Abdulla Qodiriy fenomeni tahlil qilindi. Qodiriy fenomenining mohiyati milliy roman janrining yaratilishi, xalq ruhiyatini badiiy obrazlarda ifodalash va milliy o‘zlikni anglash jarayonidagi o‘rni bilan bog‘liq ekanligi ko‘rsatildi. Tadqiqot davomida adabiyotshunoslikning qiyosiy-tahliliy, tarixiy-tipologik va nazariy-poetik metodlari qo‘llanildi. Natijalarda Qodiriyning xarakter yaratish mahorati, tarixiylik va milliylik uyg‘unligi, obrazlarning nazariy ahamiyati hamda fenomenning keyingi adabiy jarayonlarga ta’siri alohida yoritildi.

Resume. This article analyzes the phenomenon of Abdulla Qodiriy based on the theoretical views presented in Matyoqub Qo‘shjonov’s work *«The Identity of the Uzbek»* It is demonstrated that the essence of the Qodiriy phenomenon is associated with the creation of the national novel genre, the artistic expression of the people’s mentality, and its role in the process of national self-consciousness. In the course of the study, comparative-analytical, historical-typological, and theoretical-poetic methods of literary criticism were applied. The results highlight Qodiriy’s mastery in character creation, the synthesis of historicity and nationality, the theoretical significance of his images, and the influence of this phenomenon on subsequent literary processes.

Резюме. В данной статье феномен Абдуллы Кадыри анализируется на основе теоретических взглядов, изложенных в труде Матёкуба Кушжонова *«Узбекская самобытность».* Показано, что сущность феномена Кадыри связана с созданием жанра национального романа, художественным выражением народного менталитета и его ролью в процессе осознания национальной идентичности. В ходе исследования были применены сравнительно-аналитический, историко-типологический и теоретико-поэтический методы литературоведения. В результатах особо освещены мастерство Кадыри в создании характеров, синтез историзма и национальности, теоретическая значимость его образов, а также влияние феномена на последующие литературные процессы.